

## NUKUS SHAHAR AHOLI XONADONLARIDAGI TOVUQLARDА ARGAS PERSICUS KANALARINING TARQALISHI

**Yeshanova T.** – SamDVMShBU Nukus filiali magistranti  
**Pulotov F.S.** – SamDVMShBU Nukus filiali dotsenti, ilmiy rahbar

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Nukus shahri aholisi xonadonlarida uy sharoitida parvarish qilinayotgan tovuqlarda *Argas persicus* kanalari bilan tabiiy zararlanish darajasi, ularning tarqalish xususiyatlari va klinik belgilari bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar natijalari bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** *Argas persicus*, *Borrelia anserina*, parazit, borreliozi, akarisid, parrandachilik, zararlanish, dezakarisatsiya. Kirish. Mamlakatimizda mustaqillik yillarda parrandachilikni jadal rivojlantirish borasida keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Rarrandachilik oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy oqsil manbai hisoblanadi. FAO bergan ma’lumotlarga ko‘ra, aholini ekologik toza, sifatli, arzon va parhezbop parranda mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirish maqsadida oxirgi o‘n yil davomida tuxum yetishtirish 2 barobarga, parranda go‘shti yetishtirish 3 barobarga oshdi, dunyoda aholi xonadonlarida 6,8 milliard boshdan ortiq parrandalar mavjud bo‘lib ularning mahsuldarligini oshirish bilan bir qatorda parrandalarni turli kasalliklar, xususan ektoparazitlardan asrash muhim ahamiyat kasb etadi. Parrandachilik qishloq xo‘jaligining muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda katta ahamiyat kasb etadi (Frolov & Karimov, 2020). Qoraqalpog‘iston Respublikasida, xususan Nukus shahri xonadonlarida uy sharoitida parrandachilik keng yoyilgan, ammo bu faoliyat turli yuqumli va parazitar kasalliklar xavfi bilan ham yuzma-yuz keladi. Eng xavflilaridan biri — *Argas persicus* kanalari bo‘lib, ular nafaqat parazitlik qilib mahsuldarlikni kamaytiradi, balki *Borrelia anserina* tashuvchisi sifatida ahamiyatga ega (Levchenko et al., 2018)

Tadqiqotning maqsadi. Nukus shahri aholisi xonadonlaridagi tovuqlarda Argas persicus kanalari bilan tabiiy zararlanish, ularning tarqalishi, epizootologik xolati va klinik ko‘rinishlarini o‘rganish.

### Tadqiqot usullari:

- Parazitologik kuzatuv,
- Entomologik aniqlash,
- Epizootologik tahlil,
- Mikroskopik tekshiruv usullari asosida amalga oshirildi.


Petri idishlarda to‘plangan kanalar 24 soat davomida saqlanib, mikroskop ostida identifikatsiya qilindi. Har bir namuna etiketkalandi va zarur ma’lumotlar kiritildi.

**Tadqiqot natijalari:** Tadqiqotlar 2024-yil davomida Nukus shahridagi 10 ta aholi xonadonlarida olib borildi. Har bir xonadondagi 10–15 bosh tovuq tekshirildi: 1. *"Qurilisshi" mahallasi Beruniy kochasidan 2 xonodon ( 1 tasida jojalar ularda yoq, 1 tasida tovuqlardan, asosan tungi payt oyoqlaridan va devorlardan monildi).*

2. *"Jiydeli baysin" mahallasi 1 xonadonni (toza). Yaqinda asrashni boshlagan*

3. *Xojan awil 1 xonodon. Katta tovuqlar ( katak tirkichlaridan, devorlaridan topildi)*

4. *Qongirot tumani M.Xudaynazarov kochasi Ita xonadonda 26 ta tovuqlari tekshirilganida, ularda holsizlanish, oyoqlari bilan yurolmay qolgan, kanalar júdá kopayip ketkan. Kechqurin devorlarda va tovuqning oyoqlarida uchrashi aniqlandi.*



Invaziya intensivligi — 5–8 parazit/tovuqni tashkil etdi. Ko‘p holatlarda kanalar katak devorlari, tosh va yog‘och tirqishlarida, shuningdek parlar orasida joylashgan. Kanalarning 75% sentyabr oyida nimfa bosqichida uchrashi kuzatildi.

Klinik belgilari:

- Tojning oqarishi (anemiya),
- Ozish,
- Ishtahaning yo‘qolishi,
- Diareya,
- Qanotlar osilishi va harakat susayishi aniqlandi.

Xulosa. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Argas persicus kanasi Nukus shahri uy parrandachiligidagi juda keng tarqalgan bo‘lib, ularga qarshi tezkor va doimiy kurash choralarini amalga oshirish zarur.

Amaliyot uchun tavsiyalar:

Har oylik tekshiruvlar,  
To‘liq dezinfeksiya va dezakarizatsiya ishlari,  
Samarali akarisidlar va profilaktik antibiotiklardan foydalanish,  
Qushxonalarda yorug‘likni uzliksiz ta’minlash zarur.

#### **Adabiyotlar:**

1. Frolov, V. A., & Karimov, R. R. (2020). *Veterinary parasitology and control of poultry ectoparasites*. Tashkent: VetPress.
2. Levchenko, J. V., Petrov, M. A., & Saidov, A. N. (2018). Epidemiology and control of poultry borreliosis in household conditions. *Veterinary Science Journal*, 45(3), 112–119.
3. Ministry of Agriculture. (2022). *Argas persicus and its impact on poultry production*. Tashkent: State Veterinary Committee.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2021). Qushlar salomatligi va oziq-ovqat xavfsizligi konsepsiysi. Qaror № 367, 12 iyul.